

**Xalqaro tajribada ma'muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning
huquqiy maqomi va uning O'zbekiston amaliyotiga ta'siri**

Madrahimova Guljahon Ruzimboy qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: guljahon_20@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi va xalqaro tajribaning O'zbekiston amaliyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQShda ma'muriy sudlarda tomonlarning protsessual huquqlari, dalillarni taqdim etish va shikoyat qilish imkoniyati kafolatlanadi. O'zbekistonda esa 2018-yilda qabul qilingan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks taraflarga teng imkoniyatlar berib, adolat va oshkoralikni mustahkamlaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro misollar O'zbekistonda ma'muriy sud tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация: В данной статье анализируется правовой статус участников административных судебных дел и влияние международного опыта на практику Узбекистана. В Германии, Франции, Великобритании и США в административных судах гарантируются процессуальные права сторон, включая право представлять доказательства и обжаловать решения. В Узбекистане Кодекс об административном судопроизводстве, принятый в 2018 году, предоставляет сторонам равные возможности и укрепляет принципы справедливости и гласности. Результаты анализа показывают, что международные примеры играют важную роль в совершенствовании системы административных судов в Узбекистане.

Abstract: This article analyzes the legal status of participants in administrative court proceedings and the impact of international experience on Uzbekistan's practice. In Germany, France, the United Kingdom, and the United States, the procedural rights of parties in administrative courts, including the right to present evidence and to appeal, are guaranteed. In Uzbekistan, the Administrative Procedural Code adopted in 2018 provides equal opportunities for the parties and strengthens justice and transparency. The results of the analysis show that international examples play an important role in improving the administrative court system in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: ma‘muriy sudlar, ishtirokchilar huquqiy maqomi, protsessual huquqlar, protsessual tenglik tamoyili, dalillar taqdimoti, apellyatsiya, sud tekshiruvi, xalqaro tajriba, O‘zbekiston amaliyoti, adolat tamoyili

Ключевые слова: административные суды, правовой статус участников, процессуальные права, принцип процессуального равенства, представление доказательств, апелляция, судебный контроль, международный опыт, практика Узбекистана, принцип справедливости.

Keywords: administrative courts, legal status of participants, procedural rights, principle of procedural equality, presentation of evidence, appeal, judicial review, international experience, Uzbekistan’s practice, principle of justice.

KIRISH So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu jarayonda ma‘muriy sudlarning o‘rni beqiyosdir. Chunki ma‘muriy sudlar fuqarolarning davlat organlari qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligidan himoyalaniishi uchun samarali huquqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Xalqaro tajribada bunday sudlar davlat hokimiyati ustidan nazorat o‘rnatishda va inson huquqlarini kafolatlashda muhim vosita bo‘lib kelmoqda. Germaniya, Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarida ma‘muriy sudlar uzoq tarixga ega bo‘lib, fuqarolarning protsessual huquqlarini himoya qilish borasida keng amaliyot to‘plangan.

O‘zbekistonda ham bu yo‘nalish bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2018-yilda qabul qilingan “Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi kodeks mamlakatda fuqarolarning sud orqali huquqiy himoya olish imkoniyatini kengaytirdi[1]. Mazkur hujjat sud jarayonida tenglik, oshkoralik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajriba bilan taqqoslash, ilg‘or mexanizmlarni o‘rganish va ularni milliy amaliyotga tatbiq etish masalasi ilmiy tahlilni talab etadi.

ASOSIY QISM Xalqaro tajribada ma‘muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi alohida o‘ringa ega. Bunday sudlarda taraflar o‘z huquq va manfaatlarini erkin ifoda etish, dalillarni taqdim qilish, advokat yollash va sud qaroridan shikoyat qilish huquqiga ega. Yevropa davlatlarida, jumladan Germaniya, Fransiya va Polshada ma‘muriy sudlar davlat organlari ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqadi. Fuqarolarning huquqlari sud mustaqilligi va oshkoraligi tamoyillari bilan kafolatlanadi. Germaniyada 1960-yilda qabul qilingan Ma‘muriy sud kodeksiga muvofiq taraflar - ya‘ni fuqaro va davlat organi - sudda teng protsessual huquqlarga ega. Ular dalillarni taqdim etish, ekspertlarni chaqirish va yuqori instansiyaga shikoyat

qilish huquqiga ega bo'ladilar. Germaniyalik olimi E. Schmidt-Assmann bu tizimni tahlil qilar ekan, "fuqaroga davlat qaroriga qarshi chiqishda mustaqil huquqiy vositalarning mavjudligi huquqiy davlat tamoyilining asosi hisoblanadi" deya ta'kidlagan[2]. Fransiya davlatida esa ma'muriy adolat tizimi Davlat Kengashi - orqali amalga oshiriladi. Bu organ ma'muriy sudlovning markaziy bo'g'ini hisoblanadi. U davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqadi, shuningdek, davlat qarorlarini huquqiy jihatdan bekor qilish vakolatiga ega. Bunday yondashuv fuqarolarning huquqlarini davlat irodasidan ustun qo'yish tamoyiliga asoslanadi. Fransuz huquqshunosi J.B. Auby fikriga ko'ra, "Fransuz ma'muriy sudlovining eng muhim xususiyati - fuqarolar manfaatlarini davlat irodasidan ustun qo'yishidir"[3]. Bu fikr fransuz tizimining mohiyatini aniq ko'rsatadi. Ya'ni, davlat qarorlari sud oldida har doim baholanadi va ularning fuqarolarga zarar yetkazuvchi jihatlari bo'lsa, sud ularni bekor qiladi. Shu tarzda ma'muriy adolat jamiyatda huquqiy tenglik va davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada ma'muriy adolatning asosiy instituti - sud tekshiruvi hisoblanadi. Ushbu tartib oddiy fuqaroga davlat organi qarorining qonuniyligini sud orqali tekshirtirish imkonini beradi. Muhimi, bu yerda ishtirok etish huquqi juda keng talqin qilinadi. Fuqarodan shaxsiy manfaatini bevosita isbotlash shart qilinmaydi. Bu degani, davlat qarorlari jamiyat manfaatlariga zid bo'lsa, oddiy fuqaro ham sud orqali uni bekor qilishni talab qilishi mumkin.

Britaniya ma'muriy huquqi bo'yicha yetakchi mutaxassis P. Craigning fikricha: "Sudlar fuqarolarga davlat qarorlari ustidan nazorat qilish vakolatini berish orqali huquqiy tizimning demokratik legitimligini ta'minlaydi"[4]. Mazkur yondashuv Buyuk Britaniyada sud hokimiyatining jamiyat manfaatlarini himoya qilishdagi faol rolini ko'rsatadi. Bu tizim fuqarolarning davlat ustidan real nazoratini kuchaytiradi va huquqiy tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda ma'muriy sudlar odatda ikki tur model asosida tashkil etiladi: Yevropa (kontinental) modelida maxsus ma'muriy sudlar mavjud bo'lsa, Anglosakson modelida esa ma'muriy nizolar umumiy yurisdiksiyalik sudlarda ko'rib chiqiladi[5]. Masalan, AQShdagi ma'muriy ishlar anglosakson huquq tizimining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Odatda bunday ishlar federal yoki shtat sudlarida ko'rib chiqiladi. Jarayonda ikkita asosiy tomon mavjud bo'ladi: birinchisi - fuqaro yoki korxona (da'vogar), ikkinchisi - davlat idorasi (javobgar). Da'vogar davlat organi qaroridan yoki faoliyatidan norozi bo'lsa, sudga murojaat qilish orqali huquqiy himoya izlaydi. Sud jarayonida ishtirokchilar teng protsessual

huquqlarga ega: dalillar keltirish, guvoh chaqirish, yozma va og‘zaki hujjatlarni taqdim etish, sud qaroriga apellyatsiya berish. Ma‘muriy sudyalarning hukmlari dastlab ichki tartibda qayta ko‘rib chiqiladi. Agar taraflar norozi bo‘lsa, ish federal sudlarda ko‘rib chiqilishi mumkin. Shu tariqa, jarayon ko‘p bosqichli himoya mexanizmini yaratadi: avvalo idora ichidagi apellyatsiya, keyin esa sud nazorati[6]. Ushbu model O‘zbekiston amaliyotiga ham muhim saboq beradi. Chunki bizda 2018-yilda qabul qilingan “Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi kodeks ham taraflarga dalillar taqdim etish, guvohlarni so‘roq qilish va qarorlarga shikoyat qilish huquqlarini kafolatlagan. Ammo AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sud qarorlari ustidan ko‘p bosqichli nazorat mexanizmlari fuqarolar ishonchini oshiradi va davlat hokimiyatining hisobdorligini kuchaytiradi. Shu bois O‘zbekiston uchun kelgusida ma‘muriy sud qarorlarini federal sudlarga o‘xshash tarzda oliy sud organlarida yanada kengroq nazorat qilish amaliyotini kuchaytirish dolzarb bo‘lishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasida 2015-yil 8-martda qabul qilingan Ma‘muriy sud protsessual kodeksi ma‘muriy ishlarning qatnashchilarini aniq belgilab beradi[7]. Unga ko‘ra, birinchi navbatda taraflar mavjud: da‘voni ochuvchi shaxs - va unga javobgar bo‘lgan shaxs. Shuningdek, qaror ta’siridan manfaatdor bo‘lishi mumkin bo‘lgan uchinchi shaxslar, prokuror, va ayrim hollarda davlat organlari ham ishtirokchi sifatida maydonga chiqadi.

Ishtirokchilarga keng protsessual huquqlar berilgan. Ular sud materiallari bilan tanishish, o‘z dalillarini taqdim etish, bayonot va izohlar kiritish, boshqa ishtirokchilarning da‘volariga e‘tiroz bildirish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, ular qabul qilingan qarorlarga yuqori instansiya sudlarida shikoyat qilish huquqiga ega. Kodeksda barcha ishtirokchilarning tengligi qat’iy ko‘rsatilgan, ularning huquq va majburiyatlari normativ tarzda aniq tartibga solingan. Shu jihat Rossiya tizimining muhim xususiyati hisoblanadi. Professor V.V. Yarkov fikriga ko‘ra, “Ma‘muriy protsessual kodeksning qabul qilinishi Rossiya huquqiy tizimida fuqarolarning davlat organlari ustidan sud orqali samarali himoya huquqini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi”[8]. O‘zbekiston uchun bu tajriba dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bizda ham 2018-yildan boshlab “Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi kodeks amal qilmoqda. Unda fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi bahslar, ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlari belgilangan. Rossiya modelida bo‘lgani kabi, ishtirokchilarning protsessual tengligi va huquqlari kafolatlanganligi O‘zbekistonda ham ma‘muriy sudlar faoliyatida adolat tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi Kodeksida ham ishtirokchilar tarkibi va ularning maqomi bevosita an‘anaviy kontinent yondoshuviga asoslangan. Kodeks 38-moddasiga ko‘ra ma‘muriy ishda taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organlari va vakolat doirasida sudga jalb etiladigan boshqa shaxslar ishtirok etuvchi shaxslar sanaladi[9]. Mazkur ishtirokchilar sudga taqdim etilgan materiallar bilan tanishish, ulardan nusxa olish, dalillar keltirish, savol berish, ariza-shikoyat kiritish, og‘zaki va yozma bayonotlar berish huquqlariga ega va o‘zlariga tegishli protsessual majburiyatlarni ado etishi lozim. Ushbu normalar Rossiya va boshqa yevropacha amaliyotlardan olinib, O‘zbekistonga tatbiq etildi. Natijada, ma‘muriy jarayonning bosh qatnashchilari va ularning protsessual maqomi ustidan zarur qonuniy kafolatlar o‘rnatilgan, bu esa xalqaro tajribani muvofiqlashtirgan holda O‘zbekiston sud tizimida o‘zgacha yondoshuvni keng joriy etishga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Xalqaro tajribada ma‘muriy sud ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi keng qamrovli hisoblanadi. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh hamda Rossiya tajribasi ma‘muriy sudlar faoliyatida nafaqat fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bilan birga davlat hokimiyati ustidan real nazorat o‘rnatish vositasi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Har bir mamlakatda tomonlarning protsessual tengligi, dalillarni erkin taqdim etish va qarorlardan shikoyat qilish imkoniyatlari fuqarolarning huquqiy himoyasini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston tajribasi esa 2018-yilda qabul qilingan Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. Biroq xalqaro amaliyot bilan solishtirganda bizda hali ham ayrim bo‘shliqlar mavjud. Jumladan, Buyuk Britaniya va AQSh tajribasida bo‘lgani kabi qarorlarni ko‘p bosqichli shikoyat qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish, Fransiya modelida kuzatilganidek fuqarolar manfaatlarini davlat irodasidan ustun qo‘yish tamoyilini yanada kengroq joriy etish zarur. Bundan tashqari, sudlarning mustaqilligini ta‘minlash va advokatura institutining rolini kuchaytirish orqali fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirish mumkin.

Xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va ularning eng samarali mexanizmlarini O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish ma‘muriy sud tizimining yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Bu jarayon davlatning hisobdorligini kuchaytiradi, fuqarolarning huquqiy himoyasini kengaytiradi va adolatli sudlov tamoyillarini hayotga tatbiq etishda muhim qadamlardan biri bo‘ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. 2018. <https://lex.uz/docs/-3527353>
2. Schmidt-Assmann, Das allgemeine Verwaltungsrecht, Heidelberg, 2018, b-92
3. Jean-Bernard Auby, Droit Administratif, 2014, p. 27
4. Craig, Administrative Law, Oxford University Press, 2021, p. 215
5. M. Eshimbetov, The Stages of Administrative Court Establishment and Development in Uzbekistan. 2023. b. 1-4
6. Administrative hearing.
https://www.law.cornell.edu/wex/administrative_hearing
7. Российская федерация федеральный закон кодекс. 2015.
https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_176147/
8. Yarkov V.V., Административное судопроизводство в России, Москва: Статут, 2016, s. 45.
<https://library.rosvuz.ru/files/library/book/254abeae1075c7fbe8900f265c322217.pdf>
9. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. 2018. 38-modda. <https://lex.uz/docs>